

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

PROFESSIONAL IQTISODCHI-MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA IQTISODIY TAHLILNING ZARURLIGI

*Ibragimov Gayratjon Artikovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
dotsenti, i.f.n.
E-mail: gibratimov1963@gmail.com*

Annotations: Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar professional iqtisodchi-mutaxassislarni tayyorlash sohasida hal etilishi zarur bo'lgan vazifalarni ham yuzaga chiqarmoqda. Bunda iqtisodiy tahlil fanini o'qitish bakalavriat va magistratura bitiruvchilari bilim, malaka va ko'nikmalarini to'laqonli bo'lishida asosiy o'rnlardan birini egallashi amaliyotda tasdiqlanmoqda. Mazkur ishda mutaxassislarni tayyorlash yo'nalishlari kesimida fanni o'rganishning xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy tahlil, boshqaruv qarorlari, moliyaviy barqarorlik, investitsion loyihalar, baholash, byudjetdan tashqari tushumlar.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida so'nggi yillarda amalga oshirilgan o'zgarishlar iqtisodiy tahlil sohasida mutaxassislarning keskin yetishmasligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, malakali iqtisodiy tahlilchilarning mavjudligi har qanday mamlakat investitsiya muhitining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Aytish mumkinki, iqtisodiy tahlil bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash to'laqonli qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirishning asosiy vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Shu munosabat bilan iqtisodiy tahlilni o'rgatishning hozirgi amaliyotini ko'rib chiqishga va Respublikamizda iqtisodiy tahlilchilarni tayyorlashni takomillashtirish istiqbollarini belgilashga harakat qilamiz.

Bugungi kunda iqtisodiy tahlil usullari va uslublari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha bakalavr mutaxassislarni tayyorlashda amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan holda o'qitilmoqda:

60410100 - Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha);

60410400 - Moliya va moliyaviy texnologiyalar;

60410500 - Bank ishi va audit;

60410600 - Sug'urta ishi;

60410800- Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha);

60410900- Birja ishi;

60411000- Investitsion loyihalarga xizmat ko'rsatish va moliyalashtirish;

60411200 - Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha);

60412700- Baholash ishi va boshqalar.

Magistratura bosqichida esa "Buxgalteriya hisobi" va "Audit" mutaxassisliklarda magistrarni tayyorlash doirasida o'qitish amalga oshirilmoqda. Bunda o'quv dasturlarida bakalavriat yo'nalishlarida "Iqtisodiy

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

tahlil”, “Buxgalteriya hisobi” va “Audit” mutaxassisliklarida “Moliyaviy hisobot tahlili” fanlari o‘qitilishi nazarda tutilgan.

Ushbu yo‘nalishlarda o‘qitiladigan fanlarning o‘quv rejasi kadrlar tayyorlash talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish va muayyan xo‘jalik birligining faoliyat ko‘rsatish natijalarini, moliyaviy holatini, rivojlanish istiqbollarini iqtisodiy tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashga imkon beradi. Ta’lim alohida olingen korxona (tashkilot, muassasa) bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beruvchi tahlil o‘tkazish va xulosalar olish malakasiga ega iqtisodchi-mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, axborotning asosiy manbalari korxonaning o‘zida yaratilgan ma‘lumotlardir. Korxona bilan etkazib beruvchilar, pudratchilar, xaridorlar, investorlar sifatida ishlash istiqbollari bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda iqtisodiy tahlil natijalari yetarli. Biroq, mablag‘larni investitsiya qilish yo‘nalishlari ro‘yxati kengayishi, jamoaviy investitsiya institutlarining paydo bo‘lishi, yuridik va jismoniy shaxslarning bo‘s h pul mablag‘larini ishonchli boshqarish bilan bog‘liq holda, ayniqsa investitsiya sohasida qarorlar qabul qilishda boshqa muammolarga javob izlash zarurati tug‘iladi.

“Bank ishi va audit” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarni tayyorlashda “Iqtisodiy tahlil” fanini o‘rganish potentsial qarz oluvchilarni kredit olish uchun berilgan buyurtmalarini ko‘rib chiqishda, bank mijozlarining moliyaviy barqarorligiga baho berishda, yangi mijozlarni jalb qilishda ularning moliyaviy holatini o‘rganishda yuzaga keladigan savollarga javob topishda zarur bo‘ladigan bilim va malakalarni olishga imkon beradi. Bunda tegishli ko‘rsatkichlarni hisoblash, ularni qarorlarni qabul qilish jarayonida qo‘llash tartibi me’yoriy hujjatlarda, xususan, banklarning kredit siyosatida belgilab beriladi. Ushbu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 dekabrdagi 1013-sonli Qaroriga ilova qilingan “Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy holati tahlilini o‘tkazish” Reglamentida keltirilgan qoidalardan ham foydalanish mumkin. Chunki, mazkur Reglamentning 4-bandi 2-qismida ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi mavjud bo‘lmasa xo‘jalik jamiyatlari boshqaruv organlarining qaroriga ko‘ra jamiyatning moliyaviy-iqtisodiy holati tahlilini o‘tkazish uchun mazkur Reglament qoidalarini tatbiq etishlari mumkin deb belgilab qo‘yilgan.

“Sug‘urta ishi” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarni tayyorlash jarayonida “Iqtisodiy tahlil” fanini o‘qitish mijozlarning hisobot ma‘lumotlari asosida sug‘urta shartnomalarini tuzishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noxush holatlarni oldini olish imkonini beradi. Bunda balans bo‘yicha murojaatchi korxona aktivlarini o‘rganish asosida sug‘urtalash nazarda tutilayotgan mol-mulkning mavjudligi, holati, sifati, texnik holatiga baho beriladi.

Shuningdek, sug‘urta kompaniyalarining o‘zining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining tahlili ham iqtisodiy tahlilning o‘rganish ob‘ekti bo‘lib, o‘z ichiga tashkilot ishonchlilagini baholash, uning faoliyatini optimallashtirish, hamkorlik

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

qilishda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun mo'ljallangan amallar to'plamini qo'llashni oladi. Bunda, sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini baholash orqali uning ishonchiligi o'rganiladi.

Tahlil qilishdan asosiy maqsad esa sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyatini hamda moliyaviy natijalarini, shuningdek ushbu biznesni yanada samarali yuritish va rentabelligini oshirish yo'llarini aniqlash hisoblanadi. Tahlilning maqsadlari sifatida sug'urta kompaniyalari moliyaviy ahvolini baholash; moliyaviy holatdagi o'zgarishlarni hisoblash; moliyaviy ahvolni o'zgartirishi mumkin bo'lgan omillar ta'sir darajasini hisoblab chiqish; kompaniya moliyaviy ahvoli o'zgarishining asosiy yo'naliшlarini bashoratlashni belgilasa bo'ladi.

Mazkur bakalavriat yo'naliшida "Iqtisodiy tahlil" fanini o'rganish jarayoni ko'rsatilgan maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlashga yo'naltirilishi zarur.

"Investitsion loyihalarga xizmat ko'rsatish va moliyalashtirish" yo'naliш bo'yica tayyorlanayotgan mutaxassislarda sakllantiriladigan tahliliy ko'nikmalar ko'rib chiqilayotgan loyihalarning amalga oshirilish ehtimoli, moliyaviy qoplanishi, loyihalar qatnashchilarining o'z mablag'lari bilan qatnashish imkoniyatlariga baho berish, loyihalar bo'yicha optimal qarorlar qabul qilish ehtimolini oshirishga imkon beradi.

"Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" bakalavr yo'naliш bo'yica korxonalar boshqaruvchilarini tayyorlash moliya-xo'jalik faoliyatini samarali yuritishda qabul qilinadigan qarirlarni har taraflama baholay olish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. "Iqtisodiy tahlil" fanini asosiy usullarini o'rganish menejerlar xizmat vazifalarini bajarishda foydalilaniladigan axborot manbalariga kompleks baho berish imkonini yaratadi.

"Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" yo'naliш bitiruvchilar uchun umumlashtiriladigan ko'rsatkichlarni real voqelikni aks ettirishi, taqdim etilayotgan hisobotlarning aniqlik darajasi, ularning korxona faoliyatini to'liq qamrab olishi kabi savollarga aniq javob olish juda muhim. Bunda tahlil bo'yicha tegishli malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari "Iqtisodiy tahlil" fanini o'zlashtirish bilan chambarchas bog'liq.

"Baholash ishi" ta'lim yo'naliш bo'yicha tayyorlanayotgan bakalavrular egallagan bilim, malaka va ko'nikmalar mutaxassislarning ish qamrovini asosiy vositalarni baholash darajasidan korxonalarini mulk kompleksi sifatida baholash darajasigacha kengaytirish imkonini beradi. Bunda tahlil usullari baholashda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan og'ishishlarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini bartaraf etish va qisqartirish imkonini beradi.

"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" bakalavriat ta'lim yo'naliш bitiruvchilar bo'lgan mutaxassislar tashkilotlarning byudjetdan tashqari tushumlar haqidagi ma'lumotlarini o'rganish, ularni baholash, manbalarini kengaytirish orqali qo'shimcha daromadlar topish bo'yicha qabul qilinadigan qarirlarni aniqligini ta'minlashlari zarur. Ushbu holatda "Iqtisodiy tahlil" fanini o'rganish zaruriyati oshib boradi.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Ko'rib o'tilgan jihatlar professional iqtisodchi-mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish, iqtisodiy tahlil fanini o'rganish va olingan bilim, Malaka va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash orqali tegishli mutaxassislar ish samaradorligini oshirishga imkon beradi deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Klichev, B. (2014). Бошқарув ҳисобида баҳо шакллантиришни тақомиллаштириш масалалари. Молия, 2014(5), 10–15.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>
2. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITAL ECONOMY AND CHANGES IN BUSINESS ANALYSIS. International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM), 13(12), 47-52. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM4Dec2023-Uzb.pdf>
3. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar, 4 (20)-сон, 170-175.
4. Ibragimov Gayratjon Artikovich, Kurbanbaev Jurabek Erubayevich, Mukhiddinova Barno Gafurjanovna. (2019). The main differences between IFRS and NSA. International Finance and Accounting, 3(13), 1-12. Retrieved from <https://core.ac.uk/download/pdf/285998049.pdf>
5. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITALIZATION OF THE ECONOMY AND OPERATIONAL SAFETY. International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS), 13 (11), 95-101. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-Nov2023-Uzb.pdf>
6. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALAR HISOBI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI. World Scientific Research Journal, 23(2), 215–222. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3034>
7. Самадова Наргиза Расуловна. (2024). КОРХОНА ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИНГ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ COMPLEX ANALYSIS OF THE ECONOMIC COMPETENCE OF THE ENTERPRISE. World Scientific Research Journal, 23(2), 174–181. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3030>
8. Gayratjon Ibragimov. (2024). TIJORAT BANKLARIDA MBMB TIZIMINI JORIY ETISH MASALALARI. World Scientific Research Journal, 23(2), 223–230. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3035>
9. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажмини ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting*, (2), 2181-1016.
10. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). MUQOBIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. World Scientific Research Journal, 23(2), 231–238. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3036>
11. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни тақомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиққа тортиш механизмини тақомиллаштириш.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>

12. Самадова Наргизза Расуловна. (2024). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ВА БАҲОЛАШ. World Scientific Research Journal, 26(3), 95–104. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3252>

13. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). BIZNES JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI. World Scientific Research Journal, 23(2), 239–246. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3037>

14. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. Актуар молия ва бухгалтерия ҳисоби, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>

15. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>

16. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Мехнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>

17. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>